
INSTITUT HAYOTIDAGI MUHIM VOQEA

Istiqlol shukuhi kezayotgan kunlarda Farg'ona politexnika institutining tashkil topganiga ellik yil to'lishi munosabati bilan ilm dargohida tantanali tadbir bo'lib o'tdi. Tadbirda institut professor o'qituvchilari, olim va tatqiqotchilar, respublikamiz viloyatlaridan kelib mazkur ilm dargohida tahsil olgan etuk mutaxassislar, jamoat tashkilotlari, OAV vakillari ishtirok etdilar.

Anjumanni institut rektori Oybek Otaqulov ochdi va o'quv yurti tarixi haqila so'z yuritdi. Respublika Oliy ta'lim vazirining tabriknomasini o'qib eshittirdi.

Viloyat hokimi o'rinbosari Ilhomjon Nosirov tadbir qanshchilarini O'zbekiston Mustaqilligining 26 yilligi hamda institut hayotidagi muhim voqea bilan qutladi.

Bu yil institutga 5 ta fakultet 27 ta yo'nalish bo'yicha 1915 nafar talaba qabul qilindi. O'tgan yilgiga nisbatan talabalar soni 500 nafarga ortdi. Zamonaviy andozalar darajasida ta'mirlangan va jihozlangan o'quv korpuslari, yangi tashkil etilgan laboratoriyalar, 1350 o'ringa mo'ljallangan, barcha-shart sharoilar muhayyo etilgan yotoqxona yangi o'quv yiliga shay qilib qo'yildi.

Tadbir ishtirokchilari institut foyesida tashkil etilgan ilm dargohida mehnat qilgan ilm-fan fidoiylari haqidagi ko'rgazmalar bilan tanishdilar.

2017-09-05 09:31:02